

PAPER

TERMODINAMIKA QONUNLARINI OQITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Razaqov Jasur Xolmirzoyevich^{1,*}

¹Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta oqituvchisi

* RazaqovJasur@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada umumtalim maktabalarining tabiiy fanlar blokidagi oquvchilarga termodinamika qonunlarini orgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning orni va samaradorligi yoritilgan. Termodinamika qonunlarini anglash – oquvchida nazariy bilim bilan birga fizik tafakkur, eksperimentga tayanuvchanlik, sabab–oqibatni tushunish va amaliy muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantiradi. Maqolada innovatsion texnologiyalar, masalan, klaster, aqliy hujum, STEAM yondashuvi, raqamli laboratoriya vositalari, simulyatsiya va talimiyl loyihalarning integratsiyasi orqali oqitish samarasini tahlil etiladi.

Key words: Termodinamika qonunlari, fizika talimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv usul, raqamli vosita.

Kirish

Zamonaviy talim paradigmasi oquvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtiroykchi, izlovchi va yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga intiladi. Ayniqsa tabiiy fanlar, xususan fizika talimida bu tamoyil muhim ahamiyatga ega, chunki bu fan real hodisalarни tushunish, modellashtirish, eksperiment qilish, xulosalash va nati-jani hayotda qollash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Termodinamika – energiya, issiqlik, ish va ularning ozaro bogliqligini organuvchi fizikaning bolimi bolib, oquvchining ilmiy tafakkurini shakllantirishda asosiy orin tutadi. Shu sababli ushbu mavzuni oqitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zarurtaga aylanmoqda. Ananaviy maruza va yozuv asosidagi oqitish bugungi oquvchining faoliyk ehtiyojini toliq qondira olmaydi. Shu bois talimga interaktivlik, tajriba asosida anglash, ijtimoiy hamkorlik va texnologik vositalar bilan oqitish kabi yondashuvlar talab qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Azizovning fikricha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talim mazmuni, shakli va metodikasi ortasidagi muvozanatni taminlash vositosi sifatida qaralishi lozim [1]. U ozining "Zamonaviy peda-

gogik texnologiyalar" asarida aynan fizika fanini oqitishda interaktiv yondashuvlar, didaktik birliklar asosida darslarni loyihalash, shaxsga yonaltirilgan strategiyalar orqali oquvchining intellektual salohiyatini faollashtirish imkoniyatlarini keng yoritadi.

Muallif, xususan, termodinamika kabi abstrakt mavzularni tushuntirishda aqliy xaritalar, klaster, rolli oyinlar va sinfd ajariba asosidagi yondashuvlar orqali oquvchini faol bilim oluvchiga aylantirish muhimligini takidlaydi. Xaydarovning izohlashicha, termodinamika qonunlarini oqitish nafaqat fizika fanining nazariy bazasini shakllantirish, balki oquvchining fizik tafakkurini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega [2].

Uning "Fizikadan didaktik materiallar" toplamida, ayniqsa issiqlik almashinushi, energiya aylanishi, ish va entropiya kabi tushunchalarini oddiy modellashgan tajribalar orqali tushuntirish tavsiya qilinadi. Xaydarov oquvchilarni muammoni ozlari ochadigan va natijani xulosalovchi subyektga aylantirish uchun raqamli laboratoriyalar va real hayotiy masalalarni orgatishni asosli deb hisoblaydi.

Jonassenning qarashlariga kora, konstruktivistik yondashu-vda talim texnologiyalari "aqliy vositalar" (mindtools) sifatida qaralishi zarur [4]. Uning "Modeling with Technology" asarida muallif talim oluvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki faol ishtiroy orqali qurib borishini asoslaydi. Ayniqsa, simulyatsiyalar,

vizual modellash, grafik qurilmalar va muammoni modellashtirish texnologiyalari orqali murakkab qonunlarni (jumladan, termodynamika) tushuntirish samaradorligi tahlil qilinadi. Bu yondashuv oquvchilarning kognitiv rivojlanishiga faol tasir korsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Umumtalim maktablarining yuqori sinif fizikasi kursida oquvchi-larga quyidagi termodynamika qonunlari orgatliladi:

Termodynamikaning birinchi qonuni – energiyaning saqlanish qonuni;

Termodynamikaning ikkinchi qonuni – issiqlikning oz-ozidan harakatlanish yonalishi va entropiya tushunchasi bilan bogliq;

ZerOTH qonun (harorat muvozanati qonuni) – haroratning olchanish asosi. Bu mavzular fizik formulalar bilan birga, abstrakt tushunchalarni oz ichiga olgan bolib, oquvchilarda intellektual kuch sarflashni, sabr va mantiqiy mulohazani talab qildi. Shuningdek, issiqlik almashinuvi, sistemaning yopiq yoki ochiq bolishi, ishning bajarilishi va energiyaning aylanishi kabi murakkab jaray-onlarni tasavvur qilish oson emas. Shu sababli, oquituvchi bu qonunlarni nafaqat tushuntirishi, balki oquvchining ozini kashf etuvchi subyektga aylanishini taminlovchi didaktik texnologiyalarni qol-lashi muhimdir.

Termodynamika qonunlarini oqitishda qollanilishi mumkin bol-gan zamonaviy texnologiyalar quyidagilar:

Muammoli oqitish (Problem-based learning, PBL) Oquvchilar termodinamikaga doir real hayotiy muammolarni hal qilishga undaladi. Masalan, “Nega issiq choy soviydi?”, “Nima uchun muzdan suvga otish energiya talab qiladi?” kabi savollar ustida ishlash orqali ular oz bilimlarini faol ravishda ozlashtiradilar.

Simulyatsiya va raqamli tajribalar PhET (Colorado University) kabi onlayn platformalar orqali oquvchilar issiqlik almashinuvi, bosim, ish va energiya oqimlarini interaktiv tarzda kuzatib, virtual tajriba otkazadilar. Bu vizual vositalar ayniqsa laboratoriya sharoiti cheklangan maktablar uchun muhimdir.

Klaster va mental xaritalar Ushbu texnologiyalar orqali oquvchilar bilimlar tizimini tuzishadi: termodinamikada qanday tushunchalar mavjud, ular ozaro qanday bogliq – kabi savollarga diagrammalar bilan javob berishadi.

STEAM yondashuvi Science, Technology, Engineering, Arts and Math integratsiyasi asosida oquvchilar issiqlik dvigatellarining ish-lash printsipi, texnik qurilmalar (masalan: muzlatkich, issiqlik izolyatorlari) bilan tanishadilar. Bu yondashuv termodinamikani amaliy hayotga boglaydi.

Natijalar

Termodynamika qonunlarini tushunish va ularni ongli ravishda qabul qilish uchun oquvchining nafaqat bilish, balki metakognitiv faoliyati – yani oz bilimlarini tahlil qilish, tushunish darajasini baholash va ozini boshqarish qobiliyati ham rivojlangan bolishi lozim. Bu ayniqsa issiqlik almashinuvi, entropiya va energiya muvozanatiga oid mavzularda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metakognitiv yondashuv – bu oquvchining “oqishni organishi” ga yonaltirilgan texnologik metodikadir. Ushbu usulda oquituvchi oquvchiga tayyor bilim bermaydi, balki uni bilimni anglash, baholash va tushunchalar orasidagi mantiqiy bogliqlikni aniqlashga yonaltiradi.

Xulosa

XuTermodynamika qonunlarini oqitish zamonaviy fizika talimining muhim va murakkab jihatlaridan biridir. Ushbu mavzuni tushunarli, mantiqiy va qiziqarli tarzda orgatish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kompleks qollash zarur. Inter-

aktiv metodlar, raqamli vositalar, tajriba va munozara, guruhiy ishlar, vizual va reflektiv mashgulotlar oquvchining faolligini oshiradi va fanga qiziqishini mustahkamlaydi. Shunday ekan, umumtalim mакtablarining fizikani oqitish metodikasida termodynamika mavzulari doirasida yangicha yondashuvlar, pedagogik innovatsiyalar va texnologik integratsiyani tizimli tatbiq etish zamonaviy oquituvchining asosiy vazifasidir.

References

- Azizov, A.A. (2019). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: OzR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Xaydarov, B. va boshq. (2021). Fizikadan didaktik materiallar: Termodinamika bolimi uchun qollanma. – Samarqand: “Ilm ziyo” nashriyoti.
- PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. [<https://phet.colorado.edu/>]
- Jonassen, D.H. (2006). Modeling with Technology: Mindtools for Constructivist Learning. – New Jersey: Pearson Education.